



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«13» aprel 2026 y.
№ 322

**«Biznesni rivojlantirish banki» ATBning 2026-yil uchun
moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan
moliyaviy hisobotlarini auditdan o'tkazish bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQNOMALAR

Toshkent - 2026

**«Biznesni rivojlantirish banki» ATBning
“2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan moliyaviy hisobotning xalqaro
standartlari asosida tayyorlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan
moliyaviy hisobotlari”ning auditini o‘tkazish bo‘yicha**

a) TEXNIK TOPSHIRIQNOMA

1. Ko‘rsatiladigan xizmatlar nomi – «Biznesni rivojlantirish banki» ATB (keyingi o‘rinlarda “bank” deb yuritiladi)ning moliyaviy hisobotining xalqaro standartlariga (IFRS) muvofiq tuzilgan *“2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”*ni xalqaro audit standartlari (ISA) ga muvofiq auditdan o‘tkazish;

2. Yillik auditorlik tekshiruvi o‘tkazishning maqsadi – moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchliligi to‘g‘risida auditorlik xulosasini shakllantirish, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining buzilishiga olib kelgan, o‘rnatilgan meyoriy hujjatlar tartiblari buzilgan xo‘jalik operatsiyalarini aniqlashdir.

Auditning asosiy vazifalari - bankning mulki va majburiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqligini aniqlash, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarning chetlanish holatlarini aniqlashdir;

3. Xaridni amalga oshirish doirasida loyihani amalga oshirish uchun asoslar: O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari;

4. Ko‘rsatiladigan (ishlar) xizmatlar ro‘yxati va ularning hajmlari: Bankning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) muvofiq tuzilgan *“2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”*ni xalqaro audit standartlari (ISA) ga muvofiq auditdan o‘tkazish va belgilangan tartibda auditorlik xulosasini shakllantirish.

5. Xizmat ko‘rsatish joyi - Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi 18 A-uy;

6. Bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar darajasidan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar:

auditorlik tashkiloti – auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklarda auditorlik

tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi guvohnomasiga ega bo'lgan yuridik shaxs;

auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatida mustaqildirlar;

auditorlik tashkiloti javobgarligini sug'urtalash polisiga ega bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi davlat ulushi mavjud bo'lgan kamida ikkita tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan yillik moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlari (ISA)ga muvofiq auditdan o'tkazgan bo'lishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish uchun shtatida ACCA (Association of Chartered Certified Accountants)ning ACCA Member, ACCA Fellow yoki CPA (Certified Public Accountant) malaka sertifikatiga ega to'rt nafar yoki undan ko'p auditor (auditorlik tashkiloti rahbarini hisobga olgan holda) xodimlarga ega bo'lishi;

zaruriyat vujudga kelgan taqdirda, xalqaro qarz kapitali bozorlarida o'rnatilgan amaliyotga muvofiq xalqaro obligatsiyalar emissiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot yuzasidan qo'shimcha haq evaziga komfort xat (comfort letter) tayyorlab berish (*asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-sonli qarori*);

xizmatlar ushbu tanlov g'olibi deb e'tirof etilgan auditorlik tashkiloti tomonidan shaxsan ko'rsatilishi kerak. SubIjrochilarni jalb qilish, shuningdek, jamoaviy ijrochilar tomonidan xizmatlar ko'rsatish, agar ijrochi barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olgan bo'lsa, buyurtmachining yozma roziligi bilan ruxsat etiladi.

auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijalari O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati bo'yicha qonunchiligi va xalqaro audit standartlarida qo'yilgan talablarga to'liq mos kelishi kerak.

7. Xizmatlarni ko'rsatish muddatlari (davrlari): Bankning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (IFRS) muvofiq tuzilgan *"2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti"*ni xalqaro audit standartlari (ISA) ga muvofiq auditdan o'tkazish bo'yicha auditorning yakuniy xulosasini –2027-yil 1-maydan kechiktirmagan holda taqdim etish;

8. Xizmat ko'rsatish xavfsizligiga qo'yiladigan talablar:

auditorlik tekshiruvini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, xalqaro audit standartlariga, shu jumladan audit jarayonlari va metodologiyasiga rioya qilish;

auditorlik xulosasida bank, moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi buzilganligi faktlarini va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni aks ettirish;

professional audit standartlariga muvofiq malakali audit tekshiruvlari o'tkazish;

audit tekshiruvi davomida olingan va tuzilgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;

tomonlarning hech biri ushbu loyiha doirasida boshqa tomonning yozma rozilgisiz o'z huquq va majburiyatlarini yoki uning bir qismini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

9. Audit natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi:

audit natijalar bo'yicha bankning yillik moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini tasdiqlovchi auditorlik xulosasi va audit tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobot tuziladi;

yuqoridagi barcha xulosalar (hisobotlar) va Rahbariyatga murojaatnoma rus va ingliz tillarida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;

10. Ko'rsatiladigan xizmatlar sifati kafolati hajmiga qo'yiladigan talablar:

auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzish natijasida ularga yetkazilgan zarar uchun xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotning boshqa foydalanuvchilari oldida javobgardirlar.

auditni sifatsiz yoki lozim darajada o'tkazmaslik natijasida xo'jalik yurituvchi subyektga va (yoki) auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan yo'qotilgan foyda Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

auditorlik xizmatining kafolat muddati: 5 yil.

auditorlik tashkiloti Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining birida MHXS bo'yicha kamida 5 kunlik o'quv kurslarini tashkil etib berishi.

11. Ko'rsatiladigan xizmatlar natijalari sifatini ta'minlash muddatini belgilashga qo'yiladigan talablar:

auditor tomonidan axborotning maxfiylikini buzganlik uchun auditor qonun hujjatlariga va tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

12. Shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi: To'lov QQS va boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda shartnomada kelishilgan va tasdiqlangan shartlar asosida to'lanadi. Xizmatlar uchun to'lov rezidentlar uchun O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, norezidentlar uchun tanlov taklifida taqdim etilgan valyutada amalga oshiriladi.

Yillik audit shartnomasi bo'yicha to'lov tartibi:

xizmatlar umumiy qiymatining 20 (Yigirma) foizi miqdorida, QQSni hisobga olgan holda, Shartnoma Buyurtmachi tomonidan imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida **bo'nak (avans)** to'lanadi;

xizmatlarning umumiy qiymatining 60 (Oltmish) foizi miqdoridagi to'lovlar, QQSni hisobga olgan holda, Buyurtmachi tomonidan auditning **oralik bosqichlari**

yakunlanganligi sababli tuzilgan bajarilgan ishlar dalolatnomalari imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to‘lanadi;

xizmatlar umumiy qiymatining 20 (yigirma) foizi miqdoridagi **yakuniy to‘lov** auditorlik xulosasi loyihasi Buyurtmachiga taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to‘lanadi.

To‘lov valyutasi – milliy valyuta so‘m.

13. Ushbu texnik topshiriq bo‘yicha bajariladigan hisobotning foydalanish muddati kamida 5 yildan iborat.

14. Tekshiriladigan tashkilot to‘g‘risidagi ma‘lumotlar:

TASHKILOT REKVIZIHLARI

1	Tashkilot nomi (to‘liq, qisqartirilgan)	«Biznesni rivojlantirish banki» Aksiyadorlik tijorat banki
2	Tashkilot manzili (yuridik)	Toshkent shahri, A.Navoi ko‘chasi 18 A uy
3	Boshqaruv raisi (to‘liq ismi)	Annaklichev Saxi Saparmuxammedovich
4	Bosh buxgalter (to‘liq ismi)	Taxirova Ra‘no Oktyabrevna
5	Aloqa uchun telefon raqamlari:	+998 (78) 150-93-39
6	Faks raqami:	+998 (78) 150-93-39
7	Aloqa qiluvchi shaxs (to‘liq ism)	I.Saparbayev, tel.: +998 (78) 150-93-39 593
8	Rasmiy sayt manzili	www.brb.uz

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS 34) ga muvofiq tayyorlangan “2026-yil 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”ni tashqi auditdan o‘tkazish bo‘yicha

b) TEXNIK TOPSHIRIQNOMA

1. Ko‘rsatilayotgan xizmatlar nomi –“Biznesni rivojlantirish banki” ATB ning (keyingi o‘rinlarda “bank” deb yuritiladi) IAS-34 ga muvofiq tayyorlangan “2026-yil 30-iyunda yakunlangan olti oy uchun oraliq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”ni (keyingi o‘rinlarda “oraliq moliyaviy hisobot” deb yuritiladi) xalqaro audit standartlariga (ISA) muvofiq auditdan o‘tkazish.

2. Audit tekshiruvi o‘tkazishning maqsadi – auditorga audit uchun talab qilinadigan barcha dalillarni taqdim etmagan holda, auditorni oraliq moliyaviy hisobot uni tuzishga qo‘yilgan talablar biror tomondan buzilgan degan fikrga kelmagan holda audit jarayonlarini aniqlash imkonini berish hisoblanadi. Moliyaviy yoki boshqa axborotni belgilangan mezonlar asosida tuzilganligini ixchamlashtirilgan holda tekshirish ham shu maqsadlarda o‘tkaziladi. Ixchamlashtirilgan tekshiruvni o‘tkazish uchun jarayonlari qonunchilik talablari, auditning xalqaro standartlari va ixchamlashtirilgan auditni o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan shartnoma doirasida ijrochi tomonidan ishlab chiqiladi. Ixchamlashtirilgan tekshiruvni o‘tkazishda ijrochi tekshiruvga qamrab olingan ma’lumotlar muhim darajada buzilmaganligiga bo‘lgan ishonchning cheklangan darajasini ta’minlashi kerak. Ixchamlashtirilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha xulosa ijrochining oraliq moliyaviy hisobot bankning hisobot davri oxiridagi moliyaviy holati va tekshiruv davridagi moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida muhim ishonchli munosabatni ifodalamaydi degan asosga kelishiga sabab bo‘ladigan xech qanday faktlar e’tiborini tortmaganini ifoda etgan murojaatnomasi sifatida taqdim etiladi.

3. Xaridni amalga oshirish doirasida loyihani amalga oshirish uchun asoslar: O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari;

4. Ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati va ularning hajmi: Bankning IAS 34 ga muvofiq tayyorlangan “2026-yil 30-iyunda yakunlanadigan olti oy uchun oraliq ixcham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti”ni (keyingi o‘rinlarda “oraliq moliyaviy hisobot” deb yuritiladi) xalqaro audit standartlariga (ISA) muvofiq auditdan o‘tkazish.

5. Xizmat ko‘rsatish joyi - Toshkent shahri, A. Navoiy ko‘chasi 18 A-uy;

6. Bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar darajasidan kelib chiqqan holda ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:

auditorlik tashkiloti – auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi guvohnomasiga ega bo'lgan yuridik shaxs;

auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatida mustaqildirlar;

auditorlik tashkiloti javobgarligini sug'urtalash polisiga ega bo'lishi;

O'zbekiston Respublikasi davlat ulushi mavjud bo'lgan kamida ikkita tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlari (ISA)ga muvofiq auditdan o'tkazgan bo'lishi;

auditorlik xizmatlarini ko'rsatish uchun shtatida ACCA (Association of Chartered Certified Accountants)ning ACCA Member, ACCA Fellow yoki CPA (Certified Public Accountant) malaka sertifikatiga ega to'rt nafar yoki undan ko'p auditor (auditorlik tashkiloti rahbarini hisobga olgan holda) xodimlarga ega bo'lishi;

zaruriyat vujudga kelgan taqdirda, xalqaro qarz kapitali bozorlarida o'rnatilgan amaliyotga muvofiq xalqaro obligatsiyalar emissiya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot yuzasidan qo'shimcha haq evaziga komfort xat (comfort letter) tayyorlab berish (*asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-sonli qarori*);

xizmatlar ushbu tanlov g'olibi deb e'tirof etilgan auditorlik tashkiloti tomonidan shaxsan ko'rsatilishi kerak. SubIjrochilarni jalb qilish, shuningdek, jamoaviy ijrochilar tomonidan xizmatlar ko'rsatish, agar ijrochi barcha javobgarlikni o'z zimmasiga olgan bo'lsa, buyurtmachining yozma roziligi bilan ruxsat etiladi.

auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijalari O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati bo'yicha qonunchiligi va xalqaro audit standartlarida qo'yilgan talablarga to'liq mos kelishi kerak.

7. Xizmatlarni ko'rsatish muddatlari (davrlari): bankning oraliq moliyaviy hisobotini tekshirish bo'yicha auditorlik xulosasini taqdim etish – 2026-yil 15-sentabrdan kechikmagan holda;

8. Xizmat ko'rsatish xavfsizligiga qo'yiladigan talablar:

auditorlik tekshiruvini o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, xalqaro audit standartlariga, shu jumladan audit jarayonlari va metodologiyasiga rioya qilish;

auditorlik xulosasida bank, moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi buzilganligi faktlarini va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni aks ettirish;

professional audit standartlariga muvofiq malakali audit tekshiruvlari o'tkazish;

audit tekshiruvi davomida olingan va tuzilgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;

tomonlarning hech biri ushbu loyiha doirasida boshqa tomonning yozma rozilgisiz o'z huquq va majburiyatlarini yoki uning bir qismini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

9. Audit natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi:

audit natijalar bo'yicha bankning yillik konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini tasdiqlovchi auditorlik xulosasi va audit tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobot tuziladi;

yuqoridagi barcha xulosalar (hisobotlar) va Boshqaruvga murojaatnoma rus va ingliz tillarida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi;

10. Ko'rsatiladigan xizmatlar sifati kafolati hajmiga qo'yiladigan talablar:

auditorlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzish natijasida ularga yetkazilgan zarar uchun xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotning boshqa foydalanuvchilari oldida javobgardirlar.

auditni sifatsiz yoki lozim darajada o'tkazmaslik natijasida xo'jalik yurituvchi subyektga va (yoki) auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga yetkazilgan zararlar, shu jumladan yo'qotilgan foyda Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

auditorlik xizmatining kafolat muddati: 5 yil.

11. Ko'rsatiladigan xizmatlar natijalari sifatini ta'minlash muddatini belgilashga qo'yiladigan talablar:

auditor tomonidan axborotning maxfiyligini buzganlik uchun auditor qonun hujjatlariga va tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

12. Shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish tartibi: To'lov QQS va boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda shartnomada kelishilgan va tasdiqlangan shartlar asosida to'lanadi. Xizmatlar uchun to'lov rezidentlar uchun O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida, norezidentlar uchun tanlov taklifida taqdim etilgan valyutada amalga oshiriladi.

Shartnoma bo'yicha to'lov tartibi:

xizmatlar umumiy qiymatining 20 (yigirma) foizi miqdorida, QQSni hisobga olgan holda, Shartnoma Buyurtmachi tomonidan imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida **bo'nak (avans)** to'lanadi;

xizmatlarning umumiy qiymatining 60 (oltmish) foizi miqdoridagi to'lovlar, QQSni hisobga olgan holda, Buyurtmachi tomonidan auditning **oralik bosqichlari yakunlanganligi** sababli tuzilgan bajarilgan ishlar dalolatnomalari imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to'lanadi;

xizmatlar umumiy qiymatining 20 (yigirma) foizi miqdoridagi **yakuniy to'lov** auditorlik xulosasi loyihasi Buyurtmachiga taqdim etilgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida to'lanadi.

To'lov valyutasi – milliy valyuta so'm.

13. Ushbu texnik topshiriq bo'yicha bajariladigan hisobotning foydalanish muddati kamida 5 yildan iborat.

14. Tekshiriladigan tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlar:

TASHKILOT REKVIZIHLARI

1	Tashkilot nomi (to'liq, qisqartirilgan)	«Biznesni rivojlantirish banki» Aksiyadorlik tijorat banki
2	Tashkilot manzili (yuridik)	Toshkent shahri, A.Navoi ko'chasi 18 A uy
3	Boshqaruv raisi (to'liq ismi)	Annaklichev Saxi Saparmuxammedovich
4	Bosh buxgalter (to'liq ismi)	Taxirova Ra'no Oktyabrevna
5	Aloqa uchun telefon raqamlari:	+998 (78) 150-93-39
6	Faks raqami:	+998 (78) 150-93-39
7	Aloqa qiluvchi shaxs (to'liq ism)	I.Saparbayev, tel.: +998 (78) 150-93-39 593
8	Rasmiy sayt manzili	www.brb.uz

kelishuvchilar: S.Safarov, P.Тахирова

<https://hujjat.brb.uz/?pin=kX99gB71&id=7aeaf993-74fa-404f-91c4-be2ffc7444c4>